

Xorijiy aviakompaniyalarga eksplutatsion ruxsatnomalar berish va nazorat qilish bo‘limining

NIZOMI

Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Havo kodeksiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 fevraldagi “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 5647-sonli farmoniga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 fevraldagi PQ – 4143-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qaroriga, 2019 yil 19 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Vazirlar Maxkamasining 337-sonli Qaroriga, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (SARPS IKAO) standartlari va tavsiya etilgan amaliyotlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1. Umumiy qoidalar

1.1. Xorijiy aviakompaniyalarga eksplutatsion ruxsatnomalar berish va nazorat qilish bo‘limi (keyinchalik –Bo‘lim) O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi fuqaro aviatsiyasi agentligining tarkibiy bo‘linmasi (keyinchalik – Agentlik).

1.2. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari va Farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining me‘yoriy hujjatlar va qonun hujjatlari, IKAO standartlari va tavsiyalari, Agentlik to‘g‘risidagi Nizom, Agentlik direktorining buyruq va ko‘rsatmalari hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

1.3. Bo‘lim hodimlari O‘zbekiston Respublikasining fuqaro va eksperimental avatsiyasida parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspektorlari statusiga egadirlar.

1.4. Bo‘lim hodimlarining huquq va vazifalari lavozim yo‘riqnomalari bilan belgilanadi.

2. Bo‘lim vazifalari

Bo'limning asosiy vazifalari:

2.1. Agentlikning xorijiy mamlakatlar aviatsiya ma'muriyatlari, xalqaro tashkilotlar (IKAO, MAK va boshqalar), shuningdek, ularning ishchi organlari bilan bilan o'zaro hamkorligini ta'minlash.

2.2. O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasining normativ-huquqiy hujjatlariga IKAO standartlari va tavsiya etilgan amaliyotlarni tadbiiq etish faoliyatini muvofiqlashtirish.

2.3. O'zbekiston Respublikasiga muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirish uchun chet el aviakompaniyalaridan kelib tushgan arizalarni ko'rib chiqish va Ekspluatatsion ruxsatnomalar berishni tashkil etish.

2.4. O'zbekiston Respublikasiga aviaqatnovlarni amalga oshiruvchi xorijiy aviakompaniyalarning xavo kemalarini tekshirish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish.

2.5. Ichki jarayonlarning borishini nazorat qilish, sifat standartlariga rioya qilish va aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun sifat nazorati tizimini ishlab chiqish va joriy etish.

2.6. "O'zaviatsiya" faoliyati sohasidagi xavflarni aniqlash ustidan nazoratni amalga oshirish.

3. Asosiy funktsiyalar

3.1. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari loyihalarini Agentlik faoliyatiga taalluqli qismida ko'rib chiqish va kelishish.

3.2. Agentlikning vakolatlariga taalluqli masalalar bo'yicha belgilangan tartibda boshqa davlatlarning tegishli tashkilotlari, aviatsiya ma'muriyatlari va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar o'rnatish va muzokaralarni tashkil etish hamda o'z vakolatlari bilan bog'liq O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bajarilishini ta'minlash.

3.4. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi bilan xorijiy davlatlar bilan aviaqatnovlar masalalari bo'yicha o'zaro hamkorlik qilish.

3.5. Fuqaro aviatsiyasi sohasidagi xalqaro shartnomalarni hamda ularga kiritilgan qo'shimchalar va o'zgartirishni hisobga olish.

3.6. 1944 yilgi Chikago konvensiyasidan kelib chiqadigan majburiyatlar sohasidagi tadbirlarni va takliflarni tayyorlashni muvofiqlashtirish.

3.7. IKAO tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladigan tadbirlarda O'zbekiston Respublikasi vakillari (mutaxassislari) ishtirok etishi bo'yicha takliflar tayyorlash, ushbu tadbirlarda mazkur delegasiyalarning tashabbus takliflarini ishlab chiqishni tashkil etish.

3.8. Parvoz xavfsizligi va aviatsiya xavfsizligi sohalaridagi Standartlar va tavsiya etilgan amaliyotlarni hujjatlar va belgilangan tartibda amalga oshirishni muvofiqlashtirish.

3.8. Parvoz xavfsizligini nazorat qilishni tashkil etishning Universal tekshiruvlar dasturi doirasida IKAO bilan doimiy monitoring mexanizmi

bo'yicha imzolangan Memorandumga muvofiq chora-tadbirlarni monitoringini amalga oshirish.

3.9. ICAO standartlari va tavsiya etilgan amaliyotlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqish va tahlil qilishni muvofiqlashtirish. ICAO ishchi organlariga takliflarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha davlat pozitsiyasini o'z vaqtida yetkazish.

3.10. O'zbekiston fuqaro aviatsiyasi manfaatlarini ifodalash uchun ICAO tomonidan o'tkaziladigan seminarlar, konferensiyalar, uchrashuvlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish.

3.11. Respublikaning ekspluatantlarini va O'zbekiston Respublikasining havo xizmatlari sohasidagi boshqa davlatlar bilan hukumatlararo va boshqa shartnomalari ICAOda ro'yxatdan o'tkazish.

3.12. Xorijiy davlatlar aviakompaniyalariga O'zbekiston Respublikasiga muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirish uchun ekspluatatsion ruxsatnomalarni berish.

3.13. O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aerodromlariga aviaqatnovlarni amalga oshiruvchi xorijiy aviakompaniyalarni nazorat qilish tartiblari, qoidalari va me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqish.

3.14. Xalqaro tijorat aviatsiyasiga jalb etilgan xavo kemalarning xavfsizligi zarur darajasini ta'minlovchi davlat majburiyatlarini bajarish maqsadida hamda ICAO standartlari va tavsiya etilgan amaliyotiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aerodromlariga aviaqatnovlarni amalga oshiruvchi xorijiy aviakompaniyalarning havo kemalarini perronda tekshiruvlarni o'tkazish.

3.15. O'zbekiston Respublikasida parvozlarni amalga oshirish tartib va qoidalarining buzilishi aniqlanganda, xorijiy mamlakatlar aviakompaniyalariga va aviatsiya ma'muriyatlariga o'z vaqtida xabar berish.

3.16. Chet el aviakompaniyalarining parvoz xavfsizligi bo'yicha axborot almashish.

3.17. Sifat menejmenti tizimini xalqaro standartlar va amaliyotlarga moslashtirish orqali sifat rivojlanishini ta'minlash va xalqaro tajribadan foydalanish;

3.18. Fuqaro aviatsiyasi faoliyatini tartibga soluvchi Qoidalar (ICAO USOAP CMA platformasi) qoidalarining xalqaro standartlarga muvofiqligi darajasini nazorat qilish;

3.19. Sifatni nazorat qilish tizimini takomillashtirish uchun muntazam tekshiruvlar o'tkazish.

3.20. Parvozlarning xavfsizligi sohasida sifatni ta'minlashda ishtirok etish va boshqa bo'limlar faoliyatini tegishli ichki baholash tizimini ishlab chiqish orqali muntazam monitoringni amalga oshirish.

4. Bo'lim faoliyatini tashkillashtirish

4.1. Bo'limda agentlik direktori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliq boshchilik qiladi, bo'lim boshlig'i bevosita agentlik direktorining o'rinbosariga bo'ysunadi.

4.2. Bo'lim boshlig'i etib oliy aviatsion ma'lumotga ega, fuqaro aviatsiyasida kamida 5 yil ish stajiga ega bo'lgan, davlat va ingliz tillarini rasmiy vazifalari doirasida biladigan mutaxassis tayinlanadi.

4.3. Boshqarma o'z faoliyatini Agentlik direktori o'rinbosariga tomonidan tasdiqlangan oylik reja asosida amalga oshiradi.

4.4. Bo'limning ish tartibi "Agentlik xodimlarining ichki mehnat qoidalari" bilan tartibga solinadi.

4.5. Bo'lim tuzulmasining sxemasi ilovada keltirilgan.